

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TURDALIYEV DJAMSHID DJAMALOVICH

**ADVOKATURA VA ADVOKATLIK FAOLIYATINING
MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH KAFOLATLARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)

Turdaliyev Djamshid Djamalovich

Advokatura va advokatlik faoliyatining mustaqilligini ta'minlash kafolatlari.....3

Турдалиев Джамшид Джамалович

Гарантии обеспечения независимости адвокатуры и адвокатской деятельности.....23

Turdaliyev Djamshid Djamalovich

Guarantees for Ensuring the Independence of the Bar and of Advocacy.....45

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....50

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TURDALIYEV DJAMSHID DJAMALOVICH

**ADVOKATURA VA ADVOKATLIK FAOLIYATINING
MUSTAQILLIGINI TA'MINLASH KAFOLATLARI**

12.00.07 – Sud hokimiyati. Prokuror nazorati.
Huquqni muhofaza qilish faoliyatini tashkil etish. Advokatura

**Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.4.PhD/Yu22.03 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsul.uz/uz-ilmiy-kengash) va "ZiyoNET" ta'lim axborot tarmog'ida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxtasheva Umida Abdilovna
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Pulatov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Xayriyev Nodirjon Isroilovich
yuridik fanlar doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/13.05.2020.Yu.22.03. raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 27-noyabr kuni soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36 faks: +99871 233-37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1446-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar Sayilgoh ko'chasi 35-uy. Tel.: +99871 233-66-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 12-noyabr kuni tarqatildi.
(2025-yil 12-noyabrdagi 62-raqamli reestr bayonnomasi).



A.A. Otajonov

A.A. Otajonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor

I.B. Djurayev

I.B. Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, yuridik fanlar doktori, professor

D.B. Bazarova

D.B. Bazarova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

Kirish (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda advokatura fuqarolik jamiyatining huquqni himoya qiluvchi asosiy instituti sifatida huquq-tartibotga, adolatga va fuqarolarning davlat hamda xalqaro institutlarga bo'lgan ishonchini mustahkamlash jarayonining ajralmas qismiga aylanmoqda. Amnesty International va Human Rights Watch ma'lumotlariga ko'ra, 30 dan ortiq mamlakatda advokatlar ta'qib, tahdid yoki aralashuvlarga duch kelmoqdalar. Odil sudlov samaradorligi bo'yicha Yevropa komissiyasi (CEPEJ) ma'lumotlariga asosan, mustaqil advokaturaga ega bo'lgan mamlakatlarda fuqarolarning sud tizimidan qoniqish darajasi 75 foizdan yuqori bo'lsa, advokatlik faoliyatiga bosim o'tkaziladigan mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich 50 foizdan tushib ketgan¹. Shundan kelib chiqib, advokaturaning institutsional mustaqilligini to'liq ta'minlash va uning o'zini o'zi boshqarishga asoslangan barqaror hamda samarali mexanizmlarini yaratish, kasbga kirish, advokat maqomini berish, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasini uzluksiz oshirish tizimini takomillashtirish, shuningdek intizomiy javobgarlik institutini xalqaro standartlar asosida rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, davlat hisobidan advokat tayinlash amaliyotini qonun ustuvorligi va adolat prinsiplari asosida tashkil etish, advokat siri institutini qonuniy kafolatlar bilan mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, advokat iltimosnomalari va so'rovlarining huquqiy kuchini oshirish, shuningdek malaka komissiyalari faoliyatining institutsional samaradorligini ta'minlash bilan bog'liq tizimli muammolarning mavjudligi, advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligini ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zaruratini taqozo etmoqda.

Jahonda advokatlar va advokatura faoliyatining mustaqilligini ta'minlash va kafolatlash bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmoqda. Xususan, advokaturaning shakllanish tarixi va rivojlanish tendensiyalarida advokatlarning mustaqilligi masalasi, advokatura mustaqilligining shakllari, advokatura mustaqilligini ta'minlashdagi zamonaviy kafolatlar va tashkiliy-huquqiy mexanizmlar, raqamlashtirish sharoitida advokatura faoliyatining mustaqilligini kafolatlashning o'ziga xos xususiyatlari, davlat hisobidan ko'rsatiladigan advokatlik xizmatlarida advokat mustaqilligi masalasi, advokatura faoliyatiga aralashganlik uchun qo'llaniladigan javobgarlik choralari kabi turli yo'nalishlarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Shunga qaramasdan, advokatura mustaqilligining mohiyati va huquqiy tabiati, uning turlari va ijtimoiy-huquqiy ahamiyatini tahlil qilish, advokatura mustaqilligini ta'minlovchi huquqiy asoslarning shakllanishidagi zamonaviy tendensiyalar hamda mavjud muammolarni aniqlash, institutsional va tashkiliy kafolatlarining samaradorligini baholash, advokatura mustaqilligining iqtisodiy poydevorini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarni, advokatlik faoliyati mustaqilligini ta'minlovchi huquqiy va amaliy kafolatlarining tizimli turkumini belgilash, O'zbekiston sharoitida advokatlik faoliyati mustaqilligi

¹ Amnesty International hisoboti 2020/21. Dunyo bo'yicha inson huquqlari. <https://www.amnesty.org/en/documents/pol10/3202/2021/ru/>.

kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar hamda amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish, shuningdek zamonaviy axborot texnologiyalari va raqamlashtirish jarayonlarining advokatlar mustaqilligini ta'minlashdagi o'rni va ta'sirini kompleks o'rganish ilmiy izlanishlarning ustuvor yo'nalishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida huquq tizimini rivojlantirish va advokatura institutini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoniga muvofiq², advokatura institutini o'z-o'zini boshqarish tizimiga o'tkazish hamda uning davlat organlari va boshqa tuzilmalardan chinakam mustaqilligini ta'minlashga olib keladi. Zamonaviy xalqaro standartlarga mos keladigan va muqobillik tamoyillariga asoslangan advokatlar malakasini oshirish tizimini joriy etish advokatlarning kasbiy darajasi va professionalligini oshirish imkonini beradi. Fuqarolik, ma'muriy va iqtisodiy ishlar bo'yicha advokatlar va sudlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar va boshqa davlat tuzilmalari o'rtasida elektron hujjat aylanishini kamida 50 foizga yetkazish o'zaro hamkorlik samaradorligini va jarayonlarning shaffofligini oshiradi. Ushbu chora-tadbirlar advokatura mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish, uning institutsional bazasini rivojlantirish va jamiyatning odil sudlov tizimiga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan. Shunday bo'lsada, advokatura va advokatlar mustaqilligini ta'minlashga doir qonunchilikda va amaliyotda ayrim bo'shliqlar mavjudki, bu borada tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy yechimlar ishlab chiqish nihoyatda dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 27-dekabrda 349-I-son "Advokatura to'g'risida", 1998-yil 25-dekabrda 721-I-son "Advokatlik faoliyati kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida", 2023-yil 16-iyundagi O'RQ-848-son "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi, Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-maydagi PF-5441-son "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 30-maydagi PQ-263-son "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/6600404>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Advokatura va advokatlik faoliyatining mustaqilligini ta'minlash kafolatlari bilan bog'liq masalalar respublikamizda yetarli darajada tadqiq etilmagan.

Mazkur masalaning faqatgina ayrim jihatlarini M.Rustambayev, B.Salomov, U.Tuxtasheva, G.Tulyaganova, S.Rahmanova, D.Bazarova, A.Allamuratov, L.Xvan, V.Davlyatov, A.Matmuratov, Q.Matkarimov, D.Nurumov, I.Azizov, B.Saidov, N.Tagayeva va boshqa olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot darajasida tadqiq qilingan.

MDHga a'zo davlatlarda advokatura mustaqilligiga oid ayrim masalalar A.Vorobyov, A.Polyakov, Yu.Tixonravov, Yu. Pilipenko, G.Mirzoyev, I.Trunov, I.Yartix, M.Smolenskiy, T.Dabija, P.Astaxov, A.Boykov, V. Burobin, E.Vaskovskiy, A.Galoganov, G.Padva, V.Pecherskiy, A.Ragulin, G.Reznik, A.Nikiforov, M.Tolcheev, A.Orlov, A.Kazun va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o'rganilgan.

Uzoq G'arb mamlakatlarida advokatura mustaqilligi Robert W. Gordon, Gavin MacKenzie, David W.Rivkin, Gabriela Knaul tomonidan qisman tadqiq etilgan. BMTning sudyalari va advokatlari mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachilari Leandro Despui va Diyego Garsiya-Sayyan, shuningdek Xalqaro huquqshunolar assotsiatsiyasi (IBA) ekspertlari Sylvia Khatcherian, Margery Nicoll, Ken Murphy, Anne Ramberglar mazkur mavzuning ayrim jihatlariga to'xtalib o'tgan.³ Shu bois, advokatura va advokatlik faoliyatining mustaqilligini ta'minlash kafolatlari bilan bog'liq masalalar to'liq o'rganilmaganligi, kompleks tadqiqot ishlari amalga oshirilmaganligi ushbu mavzuning alohida tadqiq etilishi lozimligini taqozo etadi hamda uning dolzabligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan hamda "Sud-huquq tizimini isloh qilish sharoitida advokatura institutini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligini kafolatlashning huquqiy asoslari bilan bog'liq muammolarni aniqlash, ularni kompleks tahlil qilish va xorijiy davlatlarning tajribasiga tayangan holda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

O'zbekistonda advokaturaning mustaqilligi, uning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixini yoritib berish;

advokatura va advokatlik faoliyatining mustaqilligi, uning tushunchasi, turlari va ahamiyatini tahlil qilish;

advokatura mustaqilligining huquqiy asoslarini shakllantirishdagi zamonaviy tendensiyalar va muammolarni aniqlash va ularga ilmiy yechimlar taqdim etish;

advokatura mustaqilligining kafolatlari va ularning turlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish;

³ Bu va boshqa mualliflarning ilmiy ishlarini dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan.

advokatura mustaqilligining tashkiliy-institutsional kafolatlarini tahlil qilish;
advokatura mustaqilligining iqtisodiy kafolatlarini ochib berish;
advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlari va ularning turlarini ilmiy jihatdan aniqlash;

O‘zbekistonda advokatlik faoliyati mustaqilligi kafolatlarini kuchaytirish uchun zarur bo‘lgan chora-tadbirlar va harakatlarni belgilash;

zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirishning advokatlar mustaqilligiga ta’siri va rolini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligini kafolatlash bilan bog‘liq huquqiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligini kafolatlashga oid munosabatlarni huquqiy tartibga soluvchi qonunchilik, huquqni qo‘llash amaliyoti, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda yuridik ilm-fanda mavjud bo‘lgan konseptual yondashuvlar va ilmiy-nazariy qarashlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning tarixiy, tizimli-tuzilmaviy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy ((analiz, sintez), ilmiy manbalarni kompleks tadqiq etish, induksiya va deduksiya, statistik ma’lumotlar tahlili, ijtimoiy so‘rovlar o‘tkazish, huquqni qo‘llash amaliyotini tahliliy o‘rganish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

advokatning muayyan ishga vakolatli ekanligini elektron advokatlik orderi orqali aniqlash imkoniyatini yaratish zarurati sababli advokatlik tuzilmalari tomonidan advokatlarga muayyan ishni olib borish uchun beriladigan an’anaviy shakldagi order maqomiga teng bo‘lgan maxsus QR-kod qo‘yilgan “Elektron advokatlik orderi”ni berish amaliyotini joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni tugatish asoslarini aniqlashtirish maqsadida davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishni tugatish asoslarini qonunchilikda aniq belgilash lozimligi asoslantirilgan;

advokatlarning ixtisoslikni mustaqil tanlashi va u bo‘yicha malaka imtihonini belgilangan tartibda topshirish huquqiga ega ekanligini inobatga olish zarurligi sababli advokatlik faoliyatini litsenziyalashda har bir advokat tegishli ixtisoslikni mustaqil tanlash va u bo‘yicha belgilangan tartibda malaka imtihonini topshirish huquqiga ega ekanligini qonunchilikda mustahkamlash lozimligi asoslantirilgan;

advokatning mustaqil faoliyati uchun asosiy hujjat hisoblangan advokatlik guvohnomasini olish jarayonini soddalashtirish maqsadida talabgor yangi advokatlik tuzilmasini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun belgilangan tartibda murojaat qilganda, advokatlik tuzilmasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgandan so‘ng ikki ish kuni ichida talabgorga advokatlik guvohnomasi berilishi va bunda talabgorning advokatlik guvohnomasini olish uchun alohida murojaat qilishi talab etilmasligi talabini amaliyotga joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

advokatlar resurslarining samarali taqsimlanishini va fuqarolarga yuridik yordam ko‘rsatishda geografik muvaffaqiyatsizliklarni oldini olish, mustaqil advokatlarning kasbiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida advokat shartnoma tuzgan hududiy adliya organi joylashgan hududdagi o‘zi tanlagan tuman (shahar)larda davlat hisobidan yuridik yordam ko‘rsatishi lozimligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

advokatlik so'rovlariga order nusxasini qo'shish amaliyoti advokatlik sirini buzishini oldini olish uchun qonunchilikdan ushbu talabni chiqarish zarurligi asoslangan;

advokat foydalaniladigan yashash va xizmat xonalarida tintuv o'tkazish, olib qo'yish va ko'zdan kechirish sud qaroriga asosan, mustaqil kuzatuvchi – O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi yoki uning hududiy boshqarmalari vakolatli vakilining ishtirokida, ular oldindan bo'lib o'tadigan tintuv, olib qo'yish yoki ko'zdan kechirish to'g'risida xabardor qilingan holda amalga oshirilishi lozimligi asoslangan;

advokat davlat organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yuridik xizmatlarida boshqa haq to'lanadigan faoliyat turlarini faqat shartnomaviy-huquqiy asosda amalga oshirishga haqli ekanligi hamda bu faoliyat advokatning ushbu tuzilmalar bilan har qanday mehnat munosabatlarini istisno qilishi lozimligi to'g'risidagi qoidani aniq normativ tarzda mustahkamlash zarurligi asoslangan;

psixiatriya yoki narkologik muassasalarida ro'yxatda turgan yoxud korrupsion huquqbuzarliklarni sodir etgan yoki axloqiy fazilatlarini past bo'lgan shaxslar advokat maqomiga ega bo'la olmasligi lozimligi asoslangan;

advokatlik faoliyatiga to'sqinlik uchun javobgarlikni oshirish bo'yicha aniq amaliy yechimlar ishlab chiqilgan, jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 197¹-moddasini kengaytirish va Jinoyat kodeksining 236-moddasini yangi normalar bilan to'ldirish lozimligi asoslangan;

zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirish sharoitida Advokatlar palatasi faoliyatiga uning oshkoraligi va samaradorligini ta'minlash maqsadida raqamli yechimlarni joriy etish, shuningdek, advokaturaning davlat organlari, sudlar, notariuslar va boshqa tuzilmalar bilan elektron o'zaro aloqasini advokatlik sirini saqlashni ta'minlaydigan mustaqil boshqaruv instituti orqali amalga oshirish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari milliy qonunchilik va xalqaro huquq normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, huquqni qo'llash amaliyoti, 250 dan ortiq advokatlar, sud'yalar, prokuratura organlari xodimlari, professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar o'rtasida o'tkazilgan ijtimoiy so'rov natijalari, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirildi hamda olingan xulosa, taklif va tavsiyalar aprotatsiyadan o'tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e'lon qilingan, vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, undagi ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar kelgusidagi ilmiy faoliyatda, qonun ijodkorligida, huquqni qo'llash amaliyotida, advokatura qonunchiligining tegishli normalarini sharhlashda, milliy qonunchilikni takomillashtirishda manba sifatida qo'llashga hamda advokatura fanini ilmiy-nazariy jihatdan boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, mazkur tadqiqot ishidagi ilmiy xulosalardan qonun ijodkorligi faoliyatida, xususan, normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash hamda ularga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonida, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish hamda oliy yuridik ta'lim muassasalarida advokatura bilan bog'liq fanlarni o'qitishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

advokatlik tuzilmalari tomonidan advokatlarga muayyan ishni olib borish uchun beriladigan an'anaviy shakldagi order maqomiga teng bo'lgan maxsus QR-kod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi"ni berish haqidagi taklifdan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi "Advokatura faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-263-son qarori 4-bandini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2022-yil 23-noyabrdagi 8/10-0659-son dalolatnomasi). Mazkur taklifning joriy etilishi advokat so'rovi yuborilgan davlat organi yoki tashkilot, tegishli ishni ko'rib chiqayotgan sud yoki huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan advokatning muayyan ishga vakolatli ekanligini aniqlashni muqobil ravishda QR-kod qo'yilgan "Elektron advokatlik orderi" orqali ham amalga oshirish imkoniyatini yaratishga xizmat qilgan;

davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishni tugatish asoslariga oid takliflar O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 16-iyundagi "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risida"gi O'RQ-848-son Qonuni 23-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2023-yil 11-avgustdagi 8/11-683/8-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatish to'g'risidagi shartnomaga qo'yiladigan talablarning aniq belgilanishiga xizmat qilgan;

har bir advokat tegishli ixtisoslikni mustaqil tanlashi va u bo'yicha belgilangan tartibda malaka imtihonini topshirish huquqiga egaligiga oid takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 5-avgustdagi 432-son qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik faoliyatini maxsus elektron tizim orqali litsenziyalash tartibi to'g'risida"gi nizomning 4-bandi oltinchi xatboshi ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 12-martdagi 12-16-19-son dalolatnomasi). Ushbu takliflar advokatlarning ixtisoslikni mustaqil tanlashi va malaka imtihonini topshirishi mumkinligini belgilashga xizmat qilgan;

talabgor yangi advokatlik tuzilmasini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun belgilangan tartibda murojaat qilganda, advokatlik tuzilmasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng ikki ish kuni ichida talabgorga advokatlik guvohnomasi berilishi va bunda talabgorning advokatlik guvohnomasini olish uchun alohida murojaat qilishi talab etilmasligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 1-iyundagi 226-son qarori bilan tasdiqlangan "Advokatlik guvohnomasini berish tartibi to'g'risida"gi nizomning 13-bandi ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 12-martdagi 12-16-19-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar advokatning mustaqil faoliyati uchun

asosiy hujjat hisoblangan advokatlik guvohnomasini olish jarayonini soddalashtirishga xizmat qilgan;

advokat shartnoma tuzgan hududiy adliya organi joylashgan hududdagi o'zi tanlagan tuman (shahar)larda davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatishi lozimligi haqidagi takliflar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 21-noyabrdagi 774-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat hisobidan yuridik yordam ko'rsatadigan advokatlarni jalb etish va ularga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizamning 18-bandi birinchi xatboshisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri kotibiyatining Axborot-tahlil va yuridik ta'minlash departamentining 2025-yil 12-martdagi 12-16-19-son dalolatnomasi). Mazkur takliflar advokatlar resurslarining samarali taqsimlanishiga, fuqarolarga yuridik yordam ko'rsatishda geografik muvaffaqiyatsizliklarni oldini olishga, mustaqil advokatlarning kasbiy javobgarligini kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 9 ta respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy maqola, jumladan xalqaro jurnallarda 2 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritib berilgan.

Dissertatsiyaning "**Advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligini ta'minlashning tarixiy-huquqiy asoslari**" deb nomlangan **birinchi bobida** O'zbekiston advokaturasining mustaqilligi, uning shakllanishi va rivojlanishi retrospektivasi, advokatura va advokatlik faoliyati mustaqilligi tushunchasi, turlari va ahamiyati, advokatura mustaqilligining huquqiy asosini shakllantirishdagi zamonaviy tendensiyalar va chaqiriqlar tahlil qilingan.

O'zbekiston advokaturasining tarixiy-huquqiy rivojlanishi o'rganilib, advokatura instituti shakllanish bosqichlari va advokatlarning mustaqilligiga bo'lgan yondashuvlardagi o'zgarishlarga e'tibor qaratilgan. Dissertant advokaturani tubdan o'zgartirgan muhim islohotlarni ko'rib chiqib, ularning institutsional

mustaqillikni mustahkamlashga ko'rsatgan ta'sirini tahlil qilgan. Xususan, bu borada postsovet islohotlari davri tizimli ravishda o'rganilgan.

Advokaturaning tarixiy rivojlanishi shundan dalolat beradiki, uning samaradorligi bevosita mustaqillik kafolatlariga bog'liq va ushbu kafolatlar fuqarolar hamda tashkilotlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda asosiy shart hisoblanadi.

Shuningdek, "*advokatura faoliyati*" va "*advokatlik faoliyati*" tushunchalarini hamda ularga taalluqli xususiyatlarni ajratish zarurati isbotlangan, chunki bu ularning mustaqilligini kafolatlashga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan ushbu tushunchalarni bir-birining o'rnida ishlatish bilan bog'liq konseptual xatolar "Advokatura to'g'risida"gi Qonunda aniqlangan.

Advokatura mustaqilligining nazariy-huquqiy jihatlari tadqiq etilib, "mustaqillik" tushunchasi va uning turlari, klassifikatsiyasi ochib berilgan. Advokatura mustaqilligining qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini muvozanatini saqlashdagi ahamiyati tahlil qilingan va xalqaro amaliyotdan misollar orqali mohiyati ochib berilgan.

A.Vorobyov, A.Polyakov va Yu.Tixonravovlarning advokatura nazariyasi bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlariga tayanib, mustaqillik tamoyili quyidagi jihatlarni qamrab olishi lozimligi belgilandi: 1) advokatlar hamjamiyatini shakllantirish, jumladan kasbga qabul qilish va undan chetlashtirish tartib-qoidalarini; 2) hamjamiyat tuzilishi, rahbar organlarini shakllantirish, shuningdek advokatlarning kasbiy hamjamiyatga nisbatan huquq va majburiyatlarini tartibga solish bilan bog'liq tashkiliy masalalar; 3) kasbiy axloq me'yorlari bilan bog'liq deontologik jihatlari; 4) advokaturaning mustaqil faoliyat yuritishiga oid iqtisodiy masalalar; 5) bevosita huquqni qo'llash amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan kasbiy faoliyat.

Advokatura mustaqilligining huquqiy asosiga ta'sir ko'rsatuvchi zamonaviy chaqiriqlar tahlilida normativ tartibga solish, milliy va xalqaro standartlar o'rtasidagi ziddiyatlar, shuningdek raqamlashtirish va globallashtirish jarayonlari kabi masalalar ko'rib chiqilgan bo'lib, ular advokatura institutini yangi realiliklarga moslashtirish zaruriyatini taqozo qiladi va bu borada amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Advokatura va davlat o'rtasidagi munosabatni belgilaydigan turli yondashuvlar va konsepsiyalarni o'rganar ekan, muallif advokaturaning ijtimoiy ahamiyati, advokatlik faoliyati samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish zarurati hamda advokatura mustaqilligini kafolatlashga yo'naltirilgan ommaviy tartibga solishining ahamiyatini hisobga olgan holda, aralash yondashuvni qo'llash zarurligini ta'kidlaydi.

Advokaturani huquqiy institut (institutsional mustaqillik) sifatidagi mustaqilligi va advokatlik faoliyati (funktional mustaqillik) o'rtasidagi tushunchalarni yanada rivojlantirish va aniqlashtirish taklif qilingan. Bu esa ularni himoya qilish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlar hamda kafolatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Advokaturaning institutsional mustaqilligi – qonunchilik darajasida mustahkamlangan huquqiy maqom bo'lib, u advokatlar hamjamiyati va uning boshqaruv organlariga o'zini o'zi boshqarish, kasbga kirish, kasbiy tayyorgarlik,

intizomiy javobgarlik va resurslarni boshqarish sohalarida mustasno vakolatlar taqdim etadi hamda davlat organlari va uchinchi shaxslar aralashuviga qarshi himoyani kafolatlab, fuqarolar huquqlarini samarali himoya qilish uchun to'liq avtonomiyani ta'minlaydi.

Advokatlik faoliyati mustaqilligi – qonunchilik darajasida mustahkamlangan huquqiy maqom bo'lib, u advokatlarga jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish bo'yicha kasbiy faoliyatni erkin amalga oshirish imkoniyatini beradi hamda davlat organlari va uchinchi shaxslar tomonidan har qanday bosim yoki noqonuniy aralashuvdan himoyani kafolatlaydi.

Advokatura mustaqilligining huquqiy asosini shakllantirishda uchraydigan zamonaviy tendensiyalar va chaqiriqlarni advokaturani yanada isloh qilish va uning mustaqilligini kafolatlash chora-tadbirlarini takomillashtirish jarayonida inobatga olish zarur.

Dissertatsiyaning **ikkinchi bobi “Advokatura mustaqilligini ta'minlash kafolatlari”** deb nomlangan bo'lib, unda advokatura mustaqilligining kafolatlari mazmuni va ularning turlari, advokatura mustaqilligining tashkiliy-institutsional kafolatlari, advokatura mustaqilligining iqtisodiy kafolatlari tahlil qilingan.

Dissertant tomonidan advokatura mustaqilligining nazariy asoslari va amaliy jihatlari tizimli o'rganilib, bu asosda kafolat turlarini ajratish, ularni tasniflash va ularning funksional ahamiyatini belgilash imkoniyati yaratilgan. Advokatura mustaqilligini institutsional darajada ta'minlovchi mexanizmlarning tashkiliy va boshqaruv jihatlarida Advokatlar palatasi organlari, intizomiy komissiyalar va boshqa o'zini o'zi boshqaruv organlarining roliga alohida e'tibor qaratilgan.

Advokaturaning moliyaviy va iqtisodiy avtonomiyasini tahlil qilar ekan muallif, byudjet shakllantirish, soliqqa tortish, advokatlik birlashmalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash va advokaturaning iqtisodiy faoliyatiga tashqi aralashuvga yo'l qo'ymaslik masalalarini ko'rib chiqadi. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muammolari o'rganilib, advokaturaning iqtisodiy qaramlikka tushib qolishini oldini olishga alohida e'tibor qaratiladi.

Advokatura mustaqilligining kafolatlari, ularning turlari va kafolat ta'minlanishiga ta'sir etuvchi jihatlar aniqlanib, dissertant advokatura mustaqilligining kafolatlariga quyidagi ta'rifni taklif etgan:

“Advokatura mustaqilligining kafolatlari – advokaturani noqonuniy aralashuvdan himoya qilishga yo'naltirilgan, uning o'zini o'zi tashkil etish va boshqarish bo'yicha alohida huquqlarini ta'minlovchi hamda uning tashkiliy, institutsional va iqtisodiy mustaqilligini kafolatlaydigan normativ-huquqiy va tashkiliy ko'rsatmalar majmuasi.”

O'zbekistonda advokatura mustaqilligining tashkiliy-institutsional kafolatlari, jumladan, o'zini o'zi boshqarish, kasbga qabul qilish, intizomiy javobgarlik va advokatlarning kasbiy tayyorgarligi kabi jihatlar tahlil qilinib, ularning xalqaro standartlarga muvofiq emasligi aniqlangan. O'zini o'zi boshqarish organlarining saylanuvchanligi, almashinuvi, hisobdorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydigan samarali tizimni yaratish uchun, jumladan, Advokatlar palatasi raisi, uning o'rinbosarlari hamda hududiy boshqarma rahbarlarini saylash tartibini va ularning

vakolat muddatlarini belgilashni o'z ichiga olgan holda, saylov jarayonlarining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

Kasbga qabul qilish masalalari tahlil qilinib, amaldagi malaka komissiyalarini shakllantirish tartibi advokatura mustaqilligini kafolatlashga zid emas, degan xulosaga kelindi. Biroq, kasbga qabul qilish uchun uch oylik stajirovkadan o'tishda ayrim nomzodlarga imtiyoz berilishini nazarda tutuvchi qonun normasining xalqaro standartlarga zidligi qayd etildi. Muallif O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonunining 3¹-moddasining uchinchi qismini chiqarishni va stajirovkani barcha nomzodlar uchun majburiy etishni taklif qiladi.

Advokatlar safiga ruhiy yoki narkologik dispanserlarda ro'yxatda turgan, shuningdek, korrupsion huquqbuzarliklarda ishtirok etgan shaxslarning kirib kelishini oldini olish maqsadida, O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuniga sudyalar, notariuslar yoki huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun nomzodlarga qo'yiladigan talablar kabi norma kiritish maqsadga muvofiqdir.

2019-yildan boshlab advokatlik litsenziyalarini to'xtatish va bekor qilishda ijro etuvchi hokimiyatning ishtiroki hamda ushbu vakolatlarni ma'muriy sudlarga o'tkazilishi malaka komissiyalarining rolini susaytirib, advokatlar hamjamiyatini qarorlarni mustaqil qabul qilish huquqidan mahrum qildi, bu esa advokatura mustaqilligining xalqaro standartlariga to'g'ri kelmaydi. Shu munosabat bilan, quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarur: 1) malaka komissiyalari tarkibidan intizomiy komissiyalarni ajratish va ularning mustaqilligini ta'minlash; 2) intizomiy komissiyalarni advokat maqomini to'xtatish yoki bekor qilish bo'yicha mustaqil qaror qabul qilish vakolati bilan ta'minlash hamda bunday qarorlarni sud orqali qayta ko'rib chiqish imkoniyatini berish; 3) intizomiy javobgarlik choralari kengaytirish (hayfsan, jarima, o'qitish, zarar qoplash va hokazo); 4) intizomiy ishlar yurituviga yarashuv jarayonlari va meditatsiya mexanizmlarini joriy etish.

Advokatlar palatasini advokatlarning malakasini oshirish, ta'lim muassasalari va o'quv markazlarini tanlash bo'yicha maxsus vakolatlar bilan ta'minlash lozim. Bu advokatura mustaqilligi va raqobatbardosh ta'lim muhitini shakllantirishga xizmat qiladi. Advokatlar palatasi huzurida zamonaviy ta'lim texnologiyalari va masofaviy o'qitish usullaridan foydalanish asosida Advokatlar malakasini oshirish markazini tashkil etish zarur. Ilmiy, ta'lim va ma'rifiy tadbirlarda ishtirok etish uchun ball yig'ish va hisobga olish tizimini joriy etish taklif qilinadi, bu esa kasbiy kompetensiyalarni har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashadi.

Advokaturaning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashning ahamiyati, jumladan, o'z byudjetini mustaqil shakllantirish va uni sarflash, moliyalashtirish manbalarini mustaqil belgilash hamda yetarli moddiy-texnika bazasini yaratish kabi omillarsiz advokatura organlarining samarali faoliyat yuritishi va odil sudlov manfaatlariga xizmat qilishi mumkin emasligi asoslangan.

Oxirgi o'n yilliklarda shakllangan davlat hisobidan advokat tayinlash va uning jinoyat ishlari bo'yicha ko'rsatgan yordamining to'lov tizimidagi muammolar va kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida muallif davlat hisobidan malakali yuridik yordam ko'rsatish mexanizmlarini fuqarolik va ma'muriy ishlarning ayrim

toifalariga ham joriy etish zarurligini, ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholining qatlamlari uchun bunday yordamni ta'minlash muhimligini asoslab bergan.

Dissertant tomonidan, shuningdek, advokatlar va advokatlik tuzilmalariga soliq solish masalasini mamlakatda advokatura instituti rivojlanishining yagona konsepsiyasi doirasida ko'rib chiqish zarurligi, bunda advokatlik faoliyatining ommaviy-huquqiy xususiyati va advokaturaning ijtimoiy-huquqiy rolini inobatga olish lozimligi haqida xulosa qilingan.

Dissertatsiyaning **uchinchi bobi "Advokatlik faoliyati mustaqilligini ta'minlash kafolatlari"** deb nomlanib, unda advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlari va ularning turlari, O'zbekistonda advokatlik faoliyati mustaqilligini kafolatlarni mustahkamlash uchun zarur chora-tadbirlar va harakatlar, zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirishning advokatlar mustaqilligiga ta'siri tadqiq etiladi.

Advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlari o'rganilib, xalqaro va milliy standartlar asosida ishlab chiqilgan advokatlik faoliyati kafolatlarining tasniflanadi, xususan kafolatlar tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy, protsessual va shaxsiy turlarga bo'linadi. O'zbekiston qonunchiligida mustahkamlangan mexanizmlar va "Yuristlar roliga oid asosiy prinsiplar" (1990-yilda BMTning 8-Kongressida qabul qilingan) hamda "Mustaqil yuridik kasb standartlari" (1990-yilda Xalqaro yuristlar assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilingan) kabi xalqaro hujjatlar tahlil qilinishi barobarida milliy kafolatlar tizimining o'ziga xos jihatlari ajratib ko'rsatilgan, shuningdek ularni amalga oshirishda mavjud bo'lgan kamchilik va muammolar aniqlangan. Advokatlarning immuniteti, ularning kasbiy sirlarini himoya qilish kafolatlari va tashqi bosimdan mustaqilligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti tahlili asosida quyidagi yo'nalishlarda tavsiyalar ishlab chiqilgan: 1) advokatlarning faoliyatiga asossiz aralashuvdan himoya qilish uchun qo'shimcha mexanizmlarni joriy etish; 2) mustaqil komissiyalar tashkil etish orqali intizomiy ishlar yuritish tizimini takomillashtirish; 3) advokaturaning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlash, jumladan soliq imtiyozlarini joriy etish va bepul huquqiy yordam ko'rsatuvchi advokatlarni qo'llab-quvvatlash; 4) advokatlarning professional standartlarga rioya qilish va raqamlashtirish sharoitida ishlash malakalarini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish.

Shuningdek, mavjud kafolatlarni amalga oshirish uchun aniq mexanizmlar yetishmasligi bilan bog'liq xatar va chaqiriqlar ham bayon qilinadi.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamlashtirishning advokatlar mustaqilligiga ta'siriga e'tibor qaratar ekan, raqamlashtirishning ijobiy jihatlari (hujjat aylanmasini avtomatlashtirish, davlat organlari bilan o'zaro hamkorlikni soddalashtirish) va salbiy jihatlari (maxfiylikka tahdidlar, kiberhujumlar va kasbiy faoliyatni nazorat qilish xavfi) ko'rib chiqiladi. Elektron sud ishlarini yuritish tizimlarini joriy etish, advokatlarning raqamli savodxonligini oshirish va advokatlik sirini himoya qilish uchun texnologiyalardan foydalanish nihoyatda dolzarbdir. Advokatlik tashkilotlari uchun kiberxavfsizlik standartlarini ishlab chiqish va mijozlar bilan himoyalangan aloqa o'rnatish platformalarini yaratish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot ishida M. Rustambayev, L. Xvan, D. Bazarova hamda boshqa mualliflarning ilmiy izlanishlari va yuridik entsiklopediyalarning tahlili asosida “advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlari” tushunchasi yoritib berilgan, unga dissertant tomonidan quyidagi ta’rif beriladi:

“Advokatlik faoliyati mustaqilligining kafolatlari – advokatlarning kasbiy faoliyatiga noqonuniy aralashuvni oldini olish, ularning daxlsizligini ta’minlash, professional huquqlarini va advokatlik sirini himoya qilishga, shuningdek, odil sudlovni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy vositalar, jarayonlar va mexanizmlar majmuasi”.

Advokatlik sirini qonunchilikdagi ta’rifida uning ommaviy-huquqiy ahamiyatini cheklaydigan kamchiliklar aniqlandi. Advokatlik sirini buzishga oid ma’muriy va jinoyiy javobgarlikni tartibga solishda O‘zbekiston qonunchiligida mavjud bo‘shliqlar aniqlandi. Shuning uchun, advokatlik sirini huquqiy tushunish doirasini kengaytirish, uning davlat tomonidan himoya qilish majburiyatini mustahkamlash va advokatlardan sirni buzganlik, shuningdek, advokatlik sirini noqonuniy oshkor qilishni talab qilgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralari belgilash maqsadga muvofiqdir.

Qonunchilik normalari tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, advokat maqomini ijro etuvchi hokimiyat organlari (adliya organlari) tomonidan berilgan guvohnoma bilan bog‘lash uning mustaqilligini cheklaydi. Shu bois, advokat maqomini shaxsga guvohnoma olish vaqtidan emas, balki qasamyod qabul qilishi va reyestrga kiritilishi bilan berish lozim.

Tadqiqot natijalari davomida O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunining 7¹-moddasini qayta ko‘rib chiqish zarurligi aniqlandi, chunki ushbu modda advokatdan so‘rovga order nusxasini qo‘shishni talab qiladi. Bu esa ushbu Qonunning 9-moddasiga zid keladi, sababi orderda advokatlik siriga taalluqli (ishonch bildiruvchi shaxs haqidagi) ma’lumotlar kiritilgan bo‘ladi.

Advokatning guvohlik immuniteti instituti tahlil qilinib, O‘zbekistonning jinoyat-protsessual qonunchiligida advokatni guvoh sifatida chaqirish va so‘roq qilish masalalarini tartibga soluvchi normalarni qayta ko‘rib chiqish va ularni fuqarolik hamda iqtisodiy protsessual kodekslardagi normalar bilan uyg‘unlashtirish zarurligi to‘g‘risida xulosaga kelindi. Shuningdek, mediator va hakamlik sudyasi vazifasini bajarayotgan advokatlarning huquqlarini mustahkamlash uchun ularga professional sir rejimi va guvohlik immunitetini kengaytirish zarurligi isbotlandi.

Xalqaro standartlar va kontinental hamda umumiy huquqiy tizimga ega mamlakatlarning sud amaliyoti tahlili asosida advokatning uyi yoki xizmat xonalarida tintuv o‘tkazish uchun maxsus tartib joriy etish zarurligi asoslab berildi. Ushbu harakatlarni faqat sud qaroriga asosan va mustaqil kuzatuvchi sifatida advokatlar palatasi vakili hozirligida amalga oshirish lozim.

Tadqiqot doirasida Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 197-1-moddasini qayta ko‘rib chiqish, uning dispozitsiyasini kengaytirish va takrorlangan huquqbuzarlik uchun javobgarlikni kuchaytirish, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 236-moddasiga o‘zgartirish kiritish orqali advokat faoliyatiga aralashuv uchun jinoiy javobgarlikni joriy etish taklif qilindi.

Dissertant tomonidan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonunning 3-moddasida nazarda tutilgan advokatning davlat organlari, muassasalar va tashkilotlarning yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyat yuritish imkoniyatini belgilaydigan qoidalarni xalqaro standartlarga zidligi va nomutanosibliigi aniqlandi. Advokatning davlat organlari, tashkilotlar va muassasalar bilan mehnat munosabatlarida bo‘lishining yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, chunki xodim maqomi ish beruvchining buyruqlariga bo‘ysunishni va uning nazorati ostida bo‘lishni nazarda tutadi, bu esa advokatning mustaqilligi va autonomiyasiga mutlaqo ziddir. Advokatlik kasbining asosiy tamoyillaridan biri bu davlat idoralari, ish beruvchilar yoki boshqa shaxslar bo‘lsin, advokatning tashqi bosimdan mustaqilligidir. Ya’ni, advokatning shartnoma asosida davlat organlarining yuridik xizmati xodimi sifatida faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini nazarda tutuvchi Qonunning 3-moddasi alohida tashvish uyg‘otadi. Ushbu yondashuv advokatlik mustaqilligi prinsipiga qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. Advokatning davlat idoralari yoki boshqa davlat tashkilotlari va muassasalarining yuridik xizmati xodimi sifatidagi faoliyati uni manfaatlarini himoya qilishi kerak bo‘lgan tashkilotga bog‘liq qilib qo‘yadi. Bu holat advokatlik kasbining mustaqilligi tamoyiliga putur yetkazadi va manfaatlar to‘qnashuviga olib kelishi mumkin. Xususan, Yevropa yuristlarining kasbiy etika kodeksi (CCBE) advokatning har qanday tashqi ta’sirdan, jumladan ish beruvchilar tomonidan nazoratdan mutlaq mustaqilligini ta’minlashni talab qiladi. Ushbu hujjatga ko‘ra, advokatning mustaqilligi adolatga bo‘lgan ishonchning asosiy kafolati bo‘lib, advokat har qanday qaramlikdan himoyalangan bo‘lishi kerak. Bu borada Inson huquqlari bo‘yicha Yevropa sudida ko‘rilgan *Mateescu v. Romania* ishiga murojaat qilingan holda argumentlar keltiriladi.

Advokatlarning tergov organlarining harakatlari va qarorlarini, jumladan iltimosnomalarni qondirishdan bosh tortishni sudda qayta ko‘rib chiqish huquqini qonunchilikda mustahkamlash maqsadga muvofiq, bu advokatlik faoliyati mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga va mijozlar huquqlarini himoya qilishni ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston milliy qonunchiligiga advokatni ishonch bildiruvchi bilan tenglashtirishni taqiqlovchi normani kiritish lozim, bu BMT tomonidan qabul qilingan “Yuristlar roliga oid asosiy tamoyillar” hamda “Huquqiy kasb mustaqilligi standartlari”ga muvofiq ravishda uchinchi shaxslar va davlat organlarining advokatlar faoliyatiga aralashuvini minimallashtirishga hamda ularning ommaviy-huquqiy funksiyalarini himoya qilishni mustahkamlashga olib keladi.

Elektron orderni joriy etish advokat mustaqilligini mustahkamlaydi, degan xulosaga kelindi, biroq muallif orderni advokat vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat sifatida bekor qilishni taklif qiladi. Order advokatning vakolatlarini tasdiqlovchi hujjat sifatida sovet davrining eski merosi bo‘lib, zamonaviy sharoitda ahamiyatini yo‘qotgan. Hozirgi kunda advokatning maqomi va vakolatlarini litsenziya va guvohnoma orqali tasdiqlash mumkin, bu orderni ortga qo‘yib, ishonch bildiruvchining manfaatlarini himoya qilishni qiyinlashtiradi.

